



**Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJ kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga qarz
moliyaviy yordamini taqdim etish yuzasidan 2025 yil uchun
doimiy ochiq tanlovni**

E'LON QILADI

Moliyalashtirish manbasi nomi:	Kompaniya mablag'lari
E'lon turi:	Ochiq tanlov
E'lon qilingan sana:	2025-yil 7-may
Loyiha anketasini taqdim etish oxirgi sanasi:	2025-yil 31-dekabr
Loyiha anketasini yuborish uchun Email:	debtedcom@gmail.com

I. Qarz moliyaviy yordami (Kompaniya xizmatlar ipotekasi moliyaviy yordamining alohida turi):

Ushbu moliyaviy yordam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi PF-193-son Farmonga muvofiq ishlab chiqilib, hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rnlarda-Kompaniya) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan Kompaniya tomonidan taqdim etiladi.

Qarz moliyaviy yordami - bir taraf (Kompaniya) ikkinchi taraf (Loyiha tashabbuskori)ning topshirig'iga binoan belgilangan maqsadlar va muddatlarda foydalanish uchun nazardautilgan xaridlarni amalga oshirishga zarur bo'ladigan mablag'larni yillik foiz ustamasi bilan Kompaniyaga qaytarish grafigiga muvofiq to'lash orqali qaytarish sharti bilan maqbul Loyiha tashabbuskorining talab qilib olinguncha hisobvarag'iga o'tkazib berishni nazarda tutadigan munosabatlarining alohida turi hisoblanadi.

II. Moliyaviy yordam haqida ma'lumot:

Ushbu moliyaviy yordam ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qurilish, yuk va yo'lovchi tashish, turizm, go'sht va tuxum yetishtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlash tarmoqlari yo'naliishlari bo'yicha ko'chmas mulk, asbob-uskunalar hamda xomashyolarni sotib olishni ko'zda tutadi.

Moliyaviy yordam - loyiha qiymatining 70 foizigacha yoki:

- faoliyatiga 2 yil bo'lgan, murojaat sanasida kamida 15 ta ish o'rni mavjud bo'lgan o'rta tadbirkorlik sub'ektlariga va yillik daromadi 6 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga **5 mlrd so'mgacha**;
- faoliyatiga 2 yil bo'lgan, murojaat sanasida kamida 35 ta ish o'rni mavjud bo'lgan o'rta tadbirkorlik sub'ektlariga **10 mlrd so'mgacha**;
- faoliyatiga 2 yil bo'lgan, murojaat sanasida kamida 35 ta ish o'rni mavjud bo'lgan hamda yillik daromadi 50 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan o'rta tadbirkorlik sub'ektlariga **20 mlrd so'mdan** ortiq bo'lmagan miqdorda;
- aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratiladigan qarz moliyaviy yordamining miqdori maksimal belgilangan summaning **50 foizidan** oshmasligi lozim.

Kompaniya tomonidan qarz mablag'lari bo'yicha to'lovlar shartnomaga ilova qilingan



loyiha bo'yicha xarid shartnomasida ko'zda tutilgan shaklda va muddatlarda tegishli xaridlarni amalga oshirish uchun Loyiha tashabbuskorining talab qilib olinguncha asosiy hisobvarag'iga o'tkazib berish orqali taqdim etiladi.

Moliyaviy yordam milliy valyutada ajratiladi.

Moliyaviy yordam taqdim etish muddati:

- ko'chmas mulk sotib olish uchun 84 oygacha;

- asbob-uskuna va maxsus texnika sotib olish uchun 60 oygacha;

- aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha, shuningdek, faoliyati turi va xususiyatidan kelib chiqqan holda 36 oydan oshmagan muddatga har 12 oyda qarzdorlikni (yoki transhni) to'liq yopish sharti bilan taqdim etiladi.

Qarz moliyaviy yordami foiz stavkasi:

asosiy vositalar sotib olish uchun – **18,0 foiz***.

aylanma mablag'larini to'ldirish uchun - **20,0 foiz***.

*Foiz stavka Kompaniyaning Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi qaroriga asosan o'zgarishi mumkin, biroq Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkadan kam bo'limgan miqdorda.

III. Maqsadli loyiha yo'nalishi:

Qarz moliyaviy yordamini taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomda (4-ilova) qarz moliyaviy yordami taqdim etilmaydigan tadbirkorlik yo'nalishlaridan tashqari barcha yo'nalishlar.

IV. Moliyaviy yordam taqdim etiladigan hudud:

Respublikaning barcha hududlari.

V. Loyiha tashabbuskorlariga qo'yiladigan talablar:

- yomon kredit tarixiga ega bo'lmasligi (kredit tarixi "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi ma'lumotnomasi bo'yicha C (o'rta) va undan yuqori reytingga ega bo'lishi; oxirgi 1 yilda sud jarayoniga o'tgan kredit qarzdorliklari vujudga kelmagan bo'lishi; hisobdan chiqarilgan kredit qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi; oxirgi 1 yilda muddati o'tgan qarzdorliklari 90 kundan oshgan bo'lmasligi);
- budjet oldida muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi, tugatish jarayonida va bankrotlik ishi qo'zg'atilmagan bo'lishi hamda korxona oxirgi bir yilda zarar bilan faoliyat yuritayotgan bo'lmasligi;
- 2-son kartoteka va budjet oldida muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi;
- kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi;
- Loyiha tashabbuskorining loyihadagi ulushi 30 foizdan kam bo'lmasligi;
- yillik daromadi kamida 6 mlrd so'm bo'lishi;



- yigirma to'rt oydan ortiq faoliyat yuritayotgan hamda murojaat sanasida o'n besh nafer kishini doimiy ish bilan ta'minlagan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektiga mansub bo'lishi;
- qarzga layoqatlilik darajasi uchinchi sinf va undan past hamda nolikvid balansga ega bo'lmasligi lozim.

Qarzga layoqatlilik darajasi uchinchi sinf bo'lgan holda qarz moliyaviy yordami miqdorining kamida 125% miqdorida ko'chmas mulk, transport vositasi va maxsus texnika (qishloq xo'jaligi texnikasi bundan mustasno) garov ta'minoti sifatida taqdim qilinsa moliyaviy yordam taqdim etilishi mumkin.

VI. Qarz ta'minotiga qo'yiladigan talablar:

Qarz moliyaviy yordami ajratilishi uchun yordam miqdorining kamida 125% miqdoridagi ta'minot talab etiladi.

VII. Loyiha tashabbuskorlarning anketalarini baholanishi ko'rib chqish:

Loyiha anketasi tasdiqlangan kichik yoki o'rta tadbirkorga xabar yuboriladi (rasmiy sayt orqali ham ma'lum qilinadi) va ulardan to'liq loyiha arizasini, biznes-rejalari hamda boshqa hujjatlarni taqdim etishlari so'raladi.

Amaldagi qonunchilik va ko'rsatmalarga muvofiq barcha talab etiladigan arizalar, hujjatlar va ma'lumotlarni quyida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra baholash uchun tanlab oladi.

VIII. Ustuvorlik beriladigan loyihalar:

- yangi ish o'rinalarini yaratish soni;
- loyihaning samaradorligi (rentabelligi);
- ishchi xodimlarning mehnatiga xaq to'lash miqdorlari nisbatan yuqoriligi;
- qo'shimcha qiymat yaratilishining yuqoriligi;
- yashil va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish nazarda tutilgan loyihalarga ustunlik beriladi.

IX. Quyidagi loyihalar moliyalashtirilmaydi:

Qimorxona va billiardxonalar, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ular savdosini tashkil etish uchun talab etiladigan bino va uskunalar;

Savdo, umumiyl ovqatlanish hamda alohida tashkil etiladigan avtomobilgarga yonilg'i quyish shoxobchalari bino va uskunalari (bundan savdo va servis, yo'l bo'yi infratuzilma ob'ektlari, jumladan kompleks tarkibida avtomobilgarga yonilg'i quyish hamda savdo shoxobchalari faoliyatini tashkil etish, "yashil" texnologiyalarni, jumladan elektrmobilarni quvvatlantirishda foydalaniladigan bino va uskunalari mustasno);

Yengil avtomototransport vositalari sotib olish;

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalar (bundan go'sht va tuxum yo'nalishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishslash va qadoqlashda



foydalaniladigan bino va uskunalar mustasno).

Yuqoridagi moliyaviy yordamdan foydalanish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari 2025 yil davomida ilovadagi Anketa ma'lumotlarini debtedcom@gmail.com pochta manziliga taqdim etishlari mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon raqami [+99871-205-57-57](tel:+998712055757)